ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

PEDIATRIK ANESTEZIYADA NARKOZ DORILARINING TANLANISHI VA XAFSIZLIGI

Kokand Universitiy Andijon filiali Tibbiyot fakulteti ,Pediatriya yo'nalishi 201- guruh talabasi
Yusupova Madina Ikromjon qizi .
E-mail.abdumuhtor709@gmail.com

Kalit so'zi; anesteziya,analgetiklar.morfin,dorilarning metobolizimi.
Annotatsiya:Ushbu maqola pediatrik anesteziyaning zamonaviy tatqiqotlar va klinik amalyotdagi muhim ro'lini tatqiq qiladi.Pediatrik anesteziya bolalarda jarrohlik oldi va keying parvarish sifatini oshirishga qaratilgan tibbiyot sifatida shakillangan.pediatrika anesteziya bolalar organizimining fiziologik va formakolagik o'ziga xoslikni inobatga olgan xolda maxsus yondashuvni talab qiladi.Ushbu maqolada yani qo'llaniladigan narkoz dorilarning tanlanishi va ularning xafsizligi taxlil qilindi.Ingalatsion va intervenoz anesteziklar,hamda mushak releksantlarining bolalar organizimiga tasiri,metobolizimi yoritilgan .
Kalit so'zi; anesteziya,analgetiklar.morfin,dorilarning metobolizimi,nojo'yi ta'siri,ingalyatsion,tubokurorin,mushak releksanti,depolizatsiya.

Kirish:Pediatrik anesteziya bolalar organizimining fiziologik va farmakologik o'ziga xosliklarini inobatga olgan xolda maxsus yondashuvni talab qiladi.Anesteziya dorilarning to'g'ri tanlanishi bolalar uchun xavfsiz samarali operatsion muhit yaratishda muhim axamiyatga ega.
Pediatrik anesteziyaning o'ziga xos xususiyatlari;
-Bolalarni organizimi kattalarnikiga qaraganda sezgirroq bo'ladi.
-Nafas va yurak qon tomir tizimi kattalarga qaraganda boshqacha ishlaydi.
-Dorilarning metobalizimi va chiqarilish jarayoni yoshga bogliq ravishta o'zgaradi[1] Tibbiyotda narkozning turlari ko`p. Asosiylari esa apparat maskali (ingalyasiya) narkoz, venaga yuboriladigan total anasteziya hamda endotraxeal narkoz. Apparat maskali narkoz asosan bolalarda qo`llanilib, uzoq vaqt talab etilmaydigan muolajalarda foydalaniladi. Nafas olish yo`liga yo`naltirilgan narkozda kislorod bilan birga anastetiklar ham yuboriladi. Kattalarda esa venaga yuboriladigan total narkoz turi qo`llaniladi. Shuningdek, ingalyasiya usulini ham qo`llash mumkin, biroq bu usulda kattalar organizmini hushsizlantirish qiyin.[2].Bolalarda jarroxlik amaliyotini o'tkazilishdan oldin anesteziolik Bolani kasallik tarixi ,yoshi ,jinsi,boyi, vazni,bolani umumiy xolatini to'liq o'rganishi kerak va shundan so'ng uning organizimiga fiziologik tasiri va zarari kamroq tegishi mumkun bo'lgan anesteziyani bir turi tanlanadi.Bolaning tishlarini ko'rikdan o'tkazish juda xam muhim,chunki qimirlab turgan tishlari bo'lsa olib tashlash talab etiladi.Qimirlab turgan tishlar intubatsiya qilish jarayonida tushib nafas yo'liga tiqilib qolishi mumkin.Bundan tashqari bolaning oshqozoni bo'sh bo'lishi talab etiladi va ovqatlanmasligi buyriladi,ko'ngilsiz vaziyatlarni oldini olish uchun tozalovchi huqna o'tkaziladi.Bolalarda intubatsiya kattalarga nisbatan murakkabroq bo'ladi chunki ularda balg'am usti bo'shligi tor va xiqqildoq usti tog'ayi kichik,ovoz boylamlari tirqichi to'liq yopiq bo'ladi.Bolalar tanasi yengil va moddalar almashinuvi jadal bo'lganligi uchun narkoz tez chuqurlashib nafas markazi tez tormozlanadi.Uzoq davom etuvchi va travmatik operatsiyalatda endotraxeal narkoz beriladi.Depolyarizatsiyalanadigan va depolyarizatsiyalanmaydigan mushak releksanti kattalarga nisbatan kuchli samaraga ega,shunung uchun ular kichik do'zada ishlatiladi.-4 kg tana ogirligi 1mg.Tubokurorin xlorid-10 kg 3mg,20 kg 5mg,30 kg 7,5 mg

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

ishlatiladi.Depolyarizatsiyalovchi releksantning sezuvchanligi past,shuning uchun ularning dozasi yuqori beriladi.

Bolalar uchun suksunikxolin miqdori(A.Z.Menevich)[2]

Bola Yoshi	Intubatsiya uchun(mg/kg)	Releksatsiyani saqlash uvhun (mg/kg)
0-1	3,0	2.5
1-3	2.0	1.5
4-14	1.5	1.0

Bolalar uchun tubokurorin miqdori

Bola Yoshi	Boshlang'ich miqdori Mg/kg	Keying miqdori
0-1	0.2	Boshlang'ich miqdorning 1/3 qismi
1-3	0.4	
4-7	0.35	
7-14	0.3	

Bolalar anesteziyasida qo'llaniladigan asosiy narkoz dorilar.

Ingalatsion anesteziklar;Sevofuluran,Izofuluran,Desfluran

Intravenoz anesteziklar;Propofol,Ketamin,Topental natriy

Analgetiklar;fentanyl ,Morfin, Remifentanil

Mushak releksantlari;Rokuronyum,suksinilxolin.[3]

Xar doim xam anesteziya jarayoni tinch va samarali bo'lavermaydi 5000 tadan bittada anestezik allergik reaksiyalar kuzatilishi mumkin.Buning sabablari turli tuman va xar bir bemorni o'z organizimiga bogliq xolda kuzatiladi. Organizmga yuborilgan har qanday preparatning nojo`ya ta`siri bo`lishi mumkin. Jumladan, narkozning ham asoratlari yo`q emas. Narkozni boshidan o`tkazganlar bosh aylanishi, og`rishi, ko`ngil behuzur bo`lishi, uyqusirash kabilardan shikoyat qilishadi. Tibbiyotda bu hodisalar narkozdan keyingi holat deyiladi. Ayrimlar narkozdan keyin sochim to`kildi, tirnoqlarim sinuvchan, xotiram pand berib qolayapti, deydi. Ba`zida esa ruhiy holat o`zgarishlarini ham eshitib qolamiz. Aslida esa ruhiyat va xotira buzilishlariga narkozning dahli yo`q. Soch va tirnoqlar ham bundan emas. Kasallik muolajasidan so`ng yuzaga kelgan bo`lishi mumkin, ammo narkozdan bo`lmaydi.

Gemodinamik reaksiyalar;Anesteziklarning yurak -qon tomir tizimiga ta'siri chaqaloqlarda keskin bo'lishi mumkin.

Nevrologik xavflar;uzoq muddatli anesteziyaning rivojlanayotgan miyya faoliyatiga ta'siri tatqiqot obekti bo'lib qolmoqda.

Xo'sh qanday bemorlarga anesteziya mumkin emas?

O`tkir yurak miokardining boshlang`ich holatlari;

Stenokardiya (barqaror va noturg`un holatlari);

Qon bosimining me`yordan pastligi;

Yurak etishmovchiligi;

Bronxial astma xurujlari;

Pnevmoniya;

Nafas yo`llarining kuchli yallig`lanishi

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Tana haroratining ko`tarilishi
tinimsiz yo`tal kuzatilganida...[5]

Tavsiyalar ;Optimal dozani tanlash va nazorat qilish.Zamonaviy monitoring va texnologiyalardan foydalanish.Induvidual yondashuv va bolalar fizologiyasiga mos keluvchi protokollar asosida ishlash.Allergologlar bilan xamkorlikda anesteziya jarayonlarini o'tkazish va shifokorlar o'rtasidagi bilimlarni almashinuvini taminlash.

Xulosa;Pediatrik anesteziyada dori vositalarini to'g'ri tanlanishi va yuborilishi,xafsizlik choralari operatsiya davomida bolalar xayotiy funksiyalarining barqarorligini taminlashda muxim ro'l o'ynaydi.kelgusida bolalar anesteziyasi bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar va tatqiqotlar olib bolrilishi zarurligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI;

1.Cote,C.J &Lerman,J (2020).A Practice of Anesthesia for Infants and Children.Elsevier.
2.Darakchi.uz.09/02/2016y.
3.O.Sh.Eshonov''Anesteziologiya va reanimatologiya.160 bet.

4.Miller,R.D.,&Erikson,L.I,(2020).Miller's Anesthesia.Elsevier.

5.Darakchi .uz " Narkoz-suniy behushlik xavflimi?'' 09.02.2016 y.